



O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARINI KUCHAYTIRISH MASALALARI

**Alishev Sultonbek
Xoliknazarovich**

*Jizzax viloyati hokimligi Ishlar boshqaruvchisi
sultonbekalishev05@gmail.com*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng jahon moliya tizimiga integratsiyalashish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida yirik xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik yo‘lini tutdi. Bugungi kunda mamlakat Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Islom taraqqiyot banki (IsDB) hamda Yevropa investitsiya banki (YeIB) kabi nufuzli tashkilotlar bilan strategik sheriklik aloqalarini o‘rnatgan. Ushbu maqolada O‘zbekistonning ushbu institutlar bilan hamkorligining hozirgi holati, erishilgan natijalar va mavjud masalalar tahlil qilinadi.

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan samarali aloqalari iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hamkorlikni yanada chuqurlashtirish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

1. Institutsional islohotlarni davom ettirish – davlat moliyasini boshqarish, byudjet ochiqqligi, audit tizimlari va korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro standartlarga moslashish zarur.

2. Loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish – jalb qilingan kredit va grantlardan natijador foydalanish, monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish.

3. Mahalliy moliya tizimini integratsiyalash – banklar va moliya institutlarining IFRS, Basel tamoyillari va boshqa global standartlarga o‘tishini jadallashtirish.

4. Doimiy maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirish – texnik yordam va ekspertiza jalb etish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasining asosiy xalqaro moliya institutlariga a‘zolik sanalari, a‘zolik badallari va hamkorlikning asosiy sohalari aks ettirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari

Tashkilot nomi	A‘zolik sanasi	A‘zolik badali	Ulushi (foizda)
----------------	----------------	----------------	-----------------

Xalqaro valyuta fondi	1992-yil 21-sentabr	551,2 mln. SDR	0,12
Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki	1992-yil 21-sentabr	555,6 mln. dollar	0,17
Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi	1992-yil 24-sentabr	449,2 mln. dollar	0,22
Xalqaro moliya korporatsiyasi	1993-yil 30-sentabr	77,7 mln. dollar	0,19
Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi	1993-yil 4-noyabr	3,8 mln. dollar	0,19
Osiyo taraqqiyot banki	1995-yil 31-avgust	1,1 mlrd. dollar	0,67
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	1993-yil	60,0 mln. yevro	0,18
Islom taraqqiyot banki	2003-yil 4-aprel	13,4 mln Islom dinori	0,03
Yevropa investitsiya banki	2017-yildan faol	A'zolik shart emas, hamkorlik asosida moliyalashtirish	

XVJ bilan hamkorlik. O'zbekiston 1992-yil sentabr oyida XVJga a'zo bo'lib, tashkilotning makroiqtisodiy siyosat va valyuta kursini liberallashtirish bo'yicha maslahatlaridan foydalanib kelmoqda. 2020-yilda pandemiya davrida 375 million AQSH dollari miqdorida favqulodda yordam olingan. Har yili "Article IV" missiyalari doirasida iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi olib boriladi.

Jahon banki bilan hamkorlik. 1992-yil sentabrda a'zo bo'lgan O'zbekiston Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) resurslaridan foydalanmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik strategiyasida islohotlarni chuqurlashtirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish asosiy vazifa etib belgilangan.

OTB bilan hamkorlik. 1995-yil avgust oyidan boshlangan hamkorlik dastlab transport va energetika infratuzilmasiga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda qishloq xo'jaligi, ekologiya va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashni ham qamrab olgan. 2019-yildan "Mamlakat strategik sherikligi dasturi" amal qilmoqda.

YTTB bilan hamkorlik. 1993-yilda a'zo bo'lingan, biroq 2017-yilgacha aloqalar sust bo'lgan. Islohotlardan so'ng bank faoliyati qayta tiklanib, xususiy sektor, yashil energiya va bank modernizatsiyasi bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Hozirda YTTB O'zbekistondagi eng faol institutlardan biriga aylangan.

IsDB bilan hamkorlik. 2003-yil apreldan a'zo. Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida infratuzilma, qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida 199 ta loyiha moliyalashtirilgan. Bank, shuningdek, islomiy moliya institutlarini rivojlantirishga texnik ko'mak beradi.

YeIB bilan hamkorlik. Rasman 2011-yilda boshlangan bo'lsa-da, faol bosqich 2017-yildan keyin boshlandi. Yevropa Ittifoqining ushbu moliya instituti uzoq muddatli va past foizli kreditlar orqali energetika, ekologiya, suv ta'minoti va kichik biznesni qo'llab-quvvatlamoda.

2026-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirayotgan loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda jamlangan.

2-jadval

O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligidagi loyihalar soni va moliyalashtirish hajmi

Tashkilot nomi	Loyihalar soni	Moliyalashtirish hajmi
Xalqaro valyuta fondi	4	826,8 mln. SDR 375,0 mln. dollar
Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki	82	4798,3 mln. dollar
Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi		5060,6 mln. dollar
Xalqaro moliya korporatsiyasi	66	1258,6 mln. dollar
Ko‘p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi	5	1708,1 mln. dollar
Osiyo taraqqiyot banki	304	15,7 mlrd. dollar
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	210	6,1 mlrd. yevro
Islom taraqqiyot banki	227	5,4 mlrd. dollar
Yevropa investitsiya banki	7	193,0 mln. yevro

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi keng ko‘lamli va ko‘p yo‘nalishli ekanini ko‘rsatadi. Eng katta moliyalashtirish hajmi Osiyo taraqqiyot bankiga to‘g‘ri kelib, Asian Development Bank tomonidan 304 ta loyiha doirasida 15,7 mlrd AQSh dollari yo‘naltirilgan. Bu ko‘rsatkich mamlakat infratuzilmasi, energetika, transport va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda ushbu institutning yetakchi rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, World Bank guruhiga kiruvchi institutlar O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD) tomonidan 82 ta loyiha doirasida 4,8 mlrd dollar, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (IDA) tomonidan esa 5,06 mlrd dollar miqdorida moliyalashtirish amalga oshirilgan. Ushbu resurslar asosan infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash va institutsional islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Xalqaro valyuta fondi (IMF) bilan hamkorlik esa asosan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, 4 ta dastur doirasida 826,8 mln SDR va 375 mln AQSh dollari miqdorida moliyaviy yordam ajratilgan. Bu mablag‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya loyihalariga emas, balki iqtisodiy inqirozlarni yumshatish va to‘lov balansini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

Yevropa moliya institutlari ham O‘zbekiston bilan faol hamkorlik olib bormoqda. European Bank for Reconstruction and Development tomonidan 210 ta loyiha doirasida 6,1 mlrd yevro ajratilgan bo‘lsa, European Investment Bank tomonidan 7 ta loyiha orqali 193 mln yevro miqdorida investitsiya yo‘naltirilgan. Ushbu loyihalar asosan yashil energetika, transport infratuzilmasi va suv xo‘jaligini modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Umuman olganda, jadval O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi barqaror ravishda kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Eng katta ulush Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot bankiga to‘g‘ri keladi, Yevropa institutlari esa nisbatan kamroq hajmda bo‘lsa-da, yuqori sifatli va strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur taqsimot O‘zbekiston hukumatining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, energiya xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy sohani modernizatsiya qilish borasidagi ustuvorliklarini aks ettiradi.

O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni izchil kengaytirib,

ularning moliyaviy va texnik yordamidan samarali foydalanmoqda. XVJ, Jahon banki, OTB, YTTB, IsDB va YeIB tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan loyihalar mamlakat infratuzilmasini yangilash, xususiyl sektorni rivojlantirish, yashil energetikaga o‘tish va ijtimoiyl sohani yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, kelgusida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, loyiha monitoringini kuchaytirish va mahalliy moliya tizimini xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish zarur. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning kredit reytingini oshirish, xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta jamg‘armasiga a‘zolik to‘g‘risidagi ma‘lumotlar – XVJ rasmiyl sayti (www.imf.org).
2. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha mamlakat dasturi va loyiha portfeli – Jahon banki rasmiyl hisobotlari (www.worldbank.org/uz).
3. Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekiston bilan hamkorlik strategiyasi – OTB yillik hisobotlari (www.adb.org).
4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi faoliyati – YTTB matbuot relizlari va loyiha ma‘lumotlari (www.ebrd.com).
5. Islom taraqqiyot banki – O‘zbekiston profili (www.isdb.org).
6. Yevropa investitsiya banki – O‘zbekistondagi loyihalar (www.eib.org).